

TURK TILINI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY XATOLAR (O'ZBEKLAR UCHUN)

Abdurashidova Sitara Dilshod qizi

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti, Sharq tillari fakulteti,
Filologiya va tillarni o'qitish: Turk tili yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxslar tomonidan turk tilini o'rganish jarayonida eng ko'p qilinadigan xatolar haqida so'z yuritiladi. Asosan, tilning grammatik, leksik, fonetik qismlarida yuzaga keladigan xatoliklar misollar asosida ko'rsatilib, ularning sabablari izohlanadi. Ayniqsa, o'zbek va turk tillarining o'xshash jihatlari o'quvchilarni chalkashtirishi, o'zbek tilining ta'siri (interferensiya) sababli grammatik tuzilmalar noto'g'ri qo'llanilishi asosiy e'tiborda bo'ladi. Maqolada o'rganilayotgan xatolarni kamaytirish uchun kerakli tavsiyalar va amaliy yechimlar ham taklif etiladi. Ushbu maqola turk tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari va filologiya sohasi tadqiqotchilari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: turk tili, o'zbek o'quvchilari, interferensiya, qiyosiy tilshunoslik, fonetik xatolar, grammatik xatolar, o'zbek va turk tillari.

KIRISH. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar o'rtasida turk tiliga bo'lgan qiziqish kundan kunga oshib bormoqda. Kimdir shunchaki turk seriallarini ko'rib qiziqib ketadi, kimdir esa o'qish yoki ishlash maqsadida bu tilni o'rganadi. Ammo ko'pchiligimiz tilni o'rganayotganda, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, bir xil xatolarni takrorlayveramiz – bu tabiiy hol, chunki o'zbek va turk tillari judayam o'xshash bo'lsa ham, farqlari yetarlicha. Ushbu maqolada turk tilini o'rganishda o'zbeklar orasida eng ko'p uchraydigan xatolar tahlil qilinadi va ularni kamaytirish bo'yicha foydali maslahatlar beriladi.

ASOSIY QISM

I. O'ZBEK O'QUVCHILARI TOMONIDAN TURK TILINI O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY FONETIK VA GRAMMATIK XATOLAR

Turk tilini chet tili sifatida o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari odatda o'z ona tilining ta'sirida bir qator fonetik va grammatik xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu xatolar turlicha – tovush tizimi, so'z tuzilishi, urg'u, gap qurilishi va fe'llarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

1.1 Fonetik xatolar

O'zbek tilida mavjud bo'lmagan tovushlar, ayniqsa, 1,ö,ü,ğ kabi tovushlarning noto'g'ri talaffuzi o'quvchilarning tilni to'g'ri talaffuz qilish va ifodalashga to'sqinlik qiladi. Masalan: kız (qiz) so'zi kiz deb noto'g'ri aytiladi; göl (ko'l) so'zi gol deb

talaffuz qilinadi; ğ tovushi esa odatda o'qilmaydi va o'zbeklar tomonidan "g" deb aytiladi (dağ – dag). Shuningdek, urg'uning noto'g'ri qo'yilishi ham ma'noning chalkashishiga olib keladi (ánne o'rniga anné). Bu xatolar haqida Dede (1985) ham til o'rganishda fonetikaning ahamiyatini ta'kidlab, fonetik xatolarni tuzatish uchun audio materiallar asosida ko'proq mashqlar tavsiya qiladi.

1.2 Yozma nutqdagi grammatik xatolar

Yozma ifoda — chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun eng murakkab ko'nikmalardan biri. Corder (1967) va Brown (1994) o'quvchining xatolarini faqat kamchilik sifatida emas, balki o'rganish jarayonining tabiiy bir qismi deb hisoblaydi. Yozma nutqda o'zbek o'quvchilari tomonidan eng ko'p uchraydigan xatolar quyidagilardir:

a) Fe'l zamonlarini noto'g'ri qo'llash. Masalan: Geldim mi? o'rniga Geliyorum mu? deb yozish. Bu xatolar turk tilidagi zamonlar tizimi bilan yetarlicha tanish bo'lmaslikdan kelib chiqadi (Emiroğlu, 2014).

b) So'z tartibi va ergash gaplar: Turk tilida ergash gaplar oxiriga joylashtiriladi. Ammo o'zbekcha tuzilmada o'ylab yozilgani uchun so'z tartibi o'zgarib ketadi. Misol: Eğer gelirse, ben de gideceğim o'rniga Gelirse eğer ben de giderim deb yoziladi (Albayrak, 2010).

c) Sifat–ot mosligi va artikl xatolari: Yozma matnlarda so'zlar orasidagi grammatik aloqadorlik yetarlicha saqlanmaydi. Ayniqsa, sifatlarning otga bog'lanishi, ko'plik qo'shimchalarining noto'g'ri ishlatilishi ko'p kuzatiladi (Aytan & Güney, 2015).

d) O'zbek tilidagi tuzilmalarni bevosita tarjima qilish:

Bu – interferensiya holatidir. Masalan, "Men har kuni kitob o'qiyman" degan so'z tartibi o'zbekchadan ko'chirilgan. To'g'ri shakli esa "Her gün kitap okurum" bo'lishi kerak. Bu holatlarni Arif Çerçi va boshqalar (2023), Ak Başoğlu & Can (2014), Büyükkiz & Hasırcı (2013) o'z tadqiqotlarida keng yoritgan. Ularning fikricha, yozma matnlarda xatolarni to'g'ri tahlil qilish va tushuntirish, o'quvchiga nafaqat grammatikani, balki fikr ifodalash madaniyatini ham o'rgatadi.

II. Leksik xatolar: So'zlarni noto'g'ri tanlash va ishlatish muammosi

Turk tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari orasida leksik (so'z boyligi) bilan bog'liq xatolar ham keng tarqalgan. Bu xatolar, asosan, so'zlarning to'g'ri ma'nosini bilmaslik, sinonim va o'xshash so'zlarni chalkashtirish yoki tarjimada so'zma-so'z fikrlash oqibatida yuzaga keladi.

2.1 O'xshash so'zlarni chalkashtirish

O'zbek va turk tillarining umumiy turkiy ildizga ega ekanligi sababli, ayrim so'zlar tashqi jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi, lekin ma'nosi farq qiladi. Masalan: bakmak — qaramoq, kuzatmoq, baklava — shirinlik, dükkân — do'kon, lekin doktor

esa shifokor, o'zbekchada do'xtir deyishimiz mumkin. Shu o'xshashlik sababli talabalar ayrim so'zlarni noto'g'ri kontekstda ishlatib qo'yadilar (Bölükbaş, 2011).

2.2 So'zma-so'z tarjima qilish

Ko'plab o'quvchilar o'zbek tilidagi fikrni turk tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qiladi. Bu esa ma'no buzilishiga yoki stilistik xatolarga olib keladi. Masalan: Men boraman ev — noto'g'ri To'g'risi: Ben eve gidiyorum. Men tushlik qildim — Ben ögle yaptım deb yozilsa xato. To'g'risi: Ben ögle yemeği yedim. Bu turdagi xatolar haqida Carroll (1964) va Ellis (1994) o'z ishlarida til o'rganishda ongi bilan tarjima qilishdan voz kechib, kontekst asosida so'z o'rganishni tavsiya etadi.

2.3 So'zlar kontekstiga e'tibor bermaslik

Turk tilida ba'zi so'zlarning bir necha ma'nosi bor. O'quvchilar buni hisobga olmasdan har doim bir xil ma'noda ishlatishga harakat qiladilar. Masalan: çalışmak — ishlamoq, harakat qilmoq, o'qimoq, mashq qilmoq; istemek — xohlamoq, talab qilmoq, istash. Bunday holatlar Aytan & Güney (2015), Çetinkaya (2015) tadqiqotlarida ham keng ko'lamda ko'rsatib berilgan.

2.4 Lug'atga haddan tashqari bog'lanish

Ba'zi o'quvchilar har bir yangi so'zni matnsiz, kontekstsiz yodlab olishga urinadi. Bu esa ularni noto'g'ri ishlatishga olib keladi. Büyükkiz va Hasırcı (2013) o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, yangi so'zlarni faqat lug'atdan emas, balki real nutqdan, matnlardan o'rganish samaraliroq ekanligi isbotlangan.

XULOSA

Turk tilini o'rganayotgan o'zbek o'quvchilari ko'pincha fonetik, grammatik va leksik xatolarga yo'l qo'yishadi. Bu holat o'zbek tilining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa talaffuz, fe'l zamonlari va so'z tanlashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xatolarni o'rganish jarayonining tabiiy bir qismi deb qabul qilish va ularni to'g'rilash ustida ishlash til o'zlashtirishni osonlashtiradi. To'g'ri yondashuv, mashq va tahlil yordamida bu xatolarni kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ak Başoğlu, D., & Can, F. S. (2014). Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğrenen Balkanlı Öğrencilerin Yazılı Anlatımda Yaptıkları Hatalar Üzerine Tespitler. Dil ve Edebiyat Eğitimi Dergisi, 10, 100–119.
2. Albayrak, F. (2010). Türkçe Öğrenen Moğol Öğrencilerin Yazılı Anlatım Yanlışlarının Dil Bilgisi Açısından Değerlendirilmesi. (Yayımlanmamış Yüksek Lisans Tezi). Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
3. Aytan, T., & Güney, N. (2015). Türkçeyi Yabancı Dil Olarak Öğrenen Öğrencilerin Yazılı Anlatımlarında Karşılaşılan Sorunlar (Yıldız Tömer Örnekleme). International Journal of Languages' Education and Teaching, 3(2), 275–288.

4. Bölükbaş, F. (2011). Arap Öğrencilerin Türkçe Yazılı Anlatım Becerilerinin Değerlendirilmesi. *Turkish Studies*, 6(3), 1357–1367.
5. Brown, H. D. (1994). *Principles of Language Learning and Teaching*. New Jersey: Prentice Hall Inc.
6. Büyükkız, K. K., & Hasırcı, S. (2013). Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğrenen Öğrencilerin Yazılı Anlatımlarının Yanlış Çözümleme Yaklaşımına Göre Değerlendirilmesi. *Ana Dili Eğitimi Dergisi*, 1(4), 51–62.
7. Carroll, J. B. (1964). *Language and Thought*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
8. Corder, S. P. (1967). The Significance of Learner's Errors. *IRAL – International Review of Applied Linguistics in Language Teaching*, 5(1–4), 161–170.
9. Crystal, D. (2006). *How Language Works*. London: Penguin Books Ltd.
10. Çerçi, A., Derman, S., & Bardakçı, M. (2023). Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğrenen Öğrencilerin Yazılı Anlatımlarına Yönelik Yanlış Çözümlemesi. *Gaziantep Üniversitesi*.
11. Çetinkaya, G. (2015). Yanlış çözümlemesi: Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğrenen B2 Düzeyindeki Öğrencilerin Yazılı Metinlerine İlişkin Görünümler. *International Journal of Language's Education and Teaching*, 3(1), 164–178.
12. Dede, M. (1985). Yabancı Dil Öğretiminde Karşılaştırmalı Dil Bilim ve Yanlış Çözümlemesinin Yeri. *Türk Dili Dergisi – Dil Öğretimi Özel Sayısı (XLVII)*, 379–380: 123–135.
13. Ellis, R. (1994). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford: Oxford University Press.
14. Ellis, R. (1997). *Second Language Acquisition*. Oxford: Oxford University Press.
15. Emiroğlu, S. (2014). Türkçe Öğrenen Yabancı Öğrencilerin Yazılı Anlatımlarında Türkçenin Dil Bilgisi ve Yazım Özellikleriyle İlgili Karşılaştığı Zorluklar. *International Journal of Language Academy*, 2(3), 99–119.